



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

## **LOGOPEDIYA FANI MAQSADI, METODI VA TAMOYILLARI**

Izzatillayeva Sevara Jahongir qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universitet

Special pedagogy fakulteti talabasi

+998881987780

### **Annotation:**

Ushbu maqolada logopediya fani maqsadi, metodi va tamoyillari yoritilgan. Logopediya nutqni buzulishlarini aniqlash, tahlil qilish va tuzatish bo'yicha ilmiy-amaliy yo'nalishlardir. Faoliyat orqali yondashuv tamoyillari. Bolani dinamikida o'rGANISH va rivojlanish tamoyillari. Maqolada kuzatish, eksperiment, diagnostika va analitik metodlar orqali nutq jarayonlarini o'rGANISH usullari batafsil yoritilgan. Shuningdek, nutq nuqsonlarini bartaraf etish va oldini olishga qaratilgan tamoyillar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Logopediya, nutq buzulishlari, ta'lim, tuzatish metodikasi, pedagogika, pedagogik usullar psixologiya, nutq terapiyasi, nutq nuqsonlari, nutq apparati, tuzatish metodlari, mashg'ulot tamoyillari.

### **Аннотация:**

В данной статье освещены цели, методы и принципы логопедии. Логопедия представляет собой научно-практическую дисциплину, направленную на выявление, анализ и коррекцию нарушений речи. В статье рассматриваются принципы деятельностного подхода, принципы изучения и динамического развития ребенка, а также подробно раскрыты методы исследования речевых процессов, такие как наблюдение, эксперимент, диагностика и аналитические методы. Кроме того, рассмотрены принципы, направленные на устранение и профилактику речевых нарушений.

**Ключевые слова:** Логопедия, речевые нарушения, образование, коррекционная мето-дика, педагогика, педагогические методы, психология,



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

логотерапия, дефекты речи, речевой аппарат, методы коррекции, принципы занятий.

## **Annotation:**

This article highlights the goals, methods, and principles of the field of speech therapy. Speech therapy is a scientific and practical discipline aimed at identifying, analyzing, and correcting speech disorders. The article covers the principles of an activity-based approach, the principles of studying and developing children dynamically, and the use of observation, experimentation, diagnostics, and analytical methods to study speech processes in detail. Additionally, principles focused on eliminating and preventing speech defects are discussed.

**Keywords:** Speech therapy, speech disorders, education, correction methodology, pedagogy, pedagogical methods, psychology, speech correction, speech impairments, speech apparatus, correction methods, lesson principles.

Logopediya (logos va yunoncha. Paideia – tarbiyalash, o‘qitish) – pedagogika fani tarmog‘i; nutqdagi kamchiliklar (duduqlanish, til rivojlanmaganligi, o‘qish va yozuvdagi nuqson va boshqalar) sabablari, ularning oldini olish, tuzatish yo‘llarini hamda nutq faoliyati buzilishi mexanizmlari, alomatlarini maxsus ta’lim va tarbiya vositasida o‘rganadi. Nutqdagi nuqsonlarni tuzatish masalalari dastlab XVII asrda Yevropa mamlakatlarida surdopedagogikaga oid ilmiy ishlarda tatbiq etila boshlagan. XIX asr 2-yarmidan bu sohaga mustaqil ravishda, ammo tibbiyot nuqtai nazaridan yondashildi. Asta-sekin nutq faoliyatining tabiatи haqidagi ilmiy tasavvur kengaya borib, Logopediya yo‘nalishi tubdan o‘zgardi, pedagogik mazmun birinchi o‘ringa qo‘yiladigan bo‘ldi. XX asrga kelib Logopediya mustaqil fan sifatida shakllandi, uning maqsad va vazifalari, metodik asos va tamoyillari, boshqa fanlar bilan aloqasi masalalari ishlab chiqildi. Zamonaviy logopediya maktabgacha yoshdagi bolalar logopediyasi, maktab yoshidagi bolalar Logopediyasi, o‘smirlar va katta yoshdagilar logopediyasiga bo‘linadi. Logopediya bu - nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta’lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini o‘rganish, tuzatish va oldini olish hagidagi pedagogik fandir. Logopediva nutg faoliyat buzilishining



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

sabablari, mexanizilari, alomatlari, oqimlari tarkibini o'rganadi. Shuning uchun uning maxsus pedagogika sirasiga qo'shadilar."Logopediya" termini grekcha logos (so'z, nutq), peydeo (tarbiyalayman, o'qitaman) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, tarjimada lo'g'ri "nutqni tarbiyalash" ma'nosini anglatadi.Fan sifatida logopediya nutq nuqsonini tuzatish, nutqiy faoliyati zaiflashgan shaxslarni o'qitish va tarbiyalash jarayoni hisoblanadi. Logopediyani o'rganish obyckti - nutq nuqsoniga ega bo'lgan shaxs. Adabiy tilda qabul qilingan nutq normasidan biroz bo'lsa ham chetga chiqish - bu nutq nugsoni hisoblanadi. Zamonaviy logopediya strukturasi maktabgacha yoshli, maktab bolalar logopedyasi, o'smirlar va katta yoshdagilar logopediyasiga bo'linadi. Logopediyaning asosiy maqsadi nutgida nugsoni bor shaxslarni o'qitish, tarbiyalash va qayta tarbiyalashning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish, shuningdek, nutq nuqsonining oldini olishdan iboratdir. Logopediya fani optimizm va chuqur insonparvarlik bilan yoritilgandir.U nutqida nuqsoni bor bolalarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib beradi.I. P. Pavlovning birinchi va ikkinchi signal sistemalari orasidagi o'zaro ta'sir haqidagi, shartli reflektorlik aloqalarining shakllanish qoidalari haqidagi nazariyalari, P.K. Anoxinning funksional tizimlar hagidagi ta'limoti, ruhiy funksiyalarni dinamik tarzda cheklash haqidagi ta'limor (J.M. Sechenov, I.P. Pavlov, A.R. Luriya) va nutq faoliyatining zamonaviy neyropsixololingvistik nazariyalari haqidagi ta'limot logopediyaning tabiiy-ilmiy, psixofiziologik asosidir.I.P. Pavlov ta'limotiga muvofiq nutq bosh miyaning murakkab psixologik funksiyasini, uning ikkinchi signal tizimini o'zida namyon etadi.Bu esa signallarning signali sanaladi. Birinchi va ikkinchi signal tizimlari bir-biri bilan uzviy bog'langandir.Ikkinci signal tizimi birinchi tizim asosida shakllanadi. Ammo keyinchalik ikkinchi signal tizimining birinchi signal tizimiga tartibga soluvchi ta'siri namoyon bo'ladi. So'z alohida xususiyatning signali, umumlashtirish, mavhumlashtirish qurolidir.Birinchi va ikkinchi Signat tizimlari orasidagi o'zaro murakkab aloqalarni hisobga olish nutq buzilishini tuzatish, buzilgan nutq va nutqsiz funksiyalarning o'rnnini bosish ustida samarali logopedik ish olib borish uchun imkoniyat yaratadi.Logopediya fanining quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin. Nutq buzilishining turli shakllarida nutq faoliyatining ontogenetikini o'rganish. Nutq buzilishlarining keng targalganligi, alomatlari va darajalarini. Nutqiy faoliyati buzilgan bolalaring o'z-o'zidan va biror



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

maqsadga qaratilgan rivojlanish dinamikasini, shuningdek, nutqiy zaiflikni ularning shaxs sifatida yetishuviga, ruhiy rivojlanishiga, turli ko'rinishdagi faolivatlarini namoyon gilishga, o'zlarini tutishlariga ta'sirini aniqlash. Rivojlanishida turli xil farqlar bo'lган bolalarda (eshitish, ko'rish, fikrlash qobiliyatining hamda tayanch harakat apparatining buzilishi hollarida) nutqning shakllanishi va nutq buzilishlari xususiyatini o'rganish Nutq buzilishining kelib chiqish sabablari, mexanizmlari, tuzilishi va alomatlarini aniqlash. Nutq buzilishlarining pedagogik tashxisi, metodlarini ishlab chigish. Nutq buzilishlarini tartibga solish. Nutq buzilishini har taraf etish tamoyillari, differensiyalashgan metodlari va vositalarini ishlab chigish. Nutq buzilishining oldini olish metodlarini takomillashtirish. 10. Logopedik yordamni tashkil etish masalalarini ishlab chiqish. Logopediyaning yuqorida ko'rsatilgan vazifalarida uning ham nazariy, ham amaliy yo'nalishlari belgilab berilgandir. Uning nazariy tomoni - nutq buzilishlarini o'rganish hamda ularning oldini olish, aniglash va tuzatishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Amaliy tomoni - nutq buzilishining oldini olish, aniqlash va bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Logopediyaning nazariy va amaliy vazifalari bir-biriga chambarchas bog'langan. Logopediya fanining maqsadi Logopediya nutqdagi buzilishlarni o'rganish, oldini olish va davolashga qaratilgan fan sohasidir.

**Asosiy maqsad insonlarda nutqning normal rivojlanishini ta'minlash va mavjud muammolarni hal qilishdir.**

Vazifalari: Nutq buzilishlarini aniqlash va tasniflash. Nutq rivojlanishini kuzatish va baholash. Nutq terapiyasi yordamida buzilishlarni tuzatish. O'qituvchilar, ota-onalar va logoped mutaxassislarini zarur metodik materiallar bilan ta'minlash. Nutq buzilishlarining sabablarini aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha choralar ishlab chiqish. Logopediyaning asosiy maqsadi nutqida nuqsoni bor shaxslarni o'qitish, tarbiyalash va qayta tarbiyalashning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish, shuningdek, nutq nuqsonining oldini olishdan iboratdir. Logopediya fan sifatida katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u tilning, nutqning ijtimoiy mohiyati, bolaning talaffuzi, leksik grammatik tuzumi, tafakkuri va butun ruhiy faoliyati uzviy bog'liqligi bilan belgilanadi. Fanning metodlari Kuzatish metodi insonnutqfaoliyatini tabiiy sharoitlarda kuzatib, xatolarni aniqlash.

**Eksperimental metod** – maxsus vaziyatlarda nutq jarayonlarini o'rganish.



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

**Diagnostik** metodlar – testlar, so‘rovnomalar va diagnostika vositalari orqali nutq nuqsonlarini aniqlash.

**Analitik** metod – nutq jarayonlarini psixologik va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish. Nutqni tuzatish metodlari – artikulyatsiya mashqlari, logopedik mashqlar va o‘yin texnikalari. Kuzatish metodi. Bu metodga ko‘ra kuzatish aniq reja asosida olib borilishi va natijalar qayd varag’iga yozib borilishi kerak. Bola kuzatilayotganini bilmasligi lozim. Agar bola bu holatdan xabardor bo’lsa, bu metod tabiiyligini, haqqoniyligini yo’qotadi. Kuzatish jarayonida tekshiruvchi faqat bolaning tashqi holatlarini ko’rishi mumkin: bolaning amaliy faoliyati, ma’noga ega xarakterlari va h.k.Biroq psixolog tashqi” holatlarni kuzatish bilan cheklanmay, mana shu tashqi holatlar zamirida yashiringan psixik jarayonlar sifat va holatlarini to‘g‘ri aniqlay bilishi lozim. Kuzatish metodida asosiy urg‘u tashqi holatlarini ta’riflashga emas, ulardan to‘g‘ri xulosalar chiqarishga qaratiladi. Suhbat metodi. Bu metoddan bolaning atrof-muhit haqidagi bilimlarini, xulq-atvori, oila va ta’lim muassasasiga munosabatini aniqlash uchun foydalilanadi. Bolalarga beriladigan savollar tushunarli va qiziqarli bo’lishi kerak. Suhbatga alohida tayyorgarlik ko’riladi, ya’ni mavzu, savollar oldindan o’ylangan bo’ladi. Ko’p hollarda bolalarning javobi savollarning mazmuni bilan bir qatorda, bolalarning tekshiruvchiga nisbatan munosabatiga ham bog’liq. Bolalarning javoblari yozib boriladi. Ushbu metod natijalari bilan boshqa tekshiruv metodlari orqali olingan ma’lumotlar tahlil qilinadi. Sotsiometriya metodi. Bu metod shaxslararo munosabatlarni, shuningdek, bolalarning guruhdagi o‘rnini o‘rganish imkonini beradi. Bunda asosan quyidagicha savollardan iborat anketalar tarqatiladi: «Sen kim bilan saygaborishni xohlaysan?», «Sayrda kim bilan o‘ynashni xohlaysan?», «Tug‘ilgan kuningga kimni taklif etasan?», «Kim bilan bir partada o‘tirishni xohlaysan?» va h.k. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga bunday savollar berish tavsiya etilmaydi. Bunda bolaga o’ziga yoqqan 3 ta o‘yinchoqni tanlab olish taklif etiladi. So‘ng bolaga «maxfiy tarzda» shu o‘yinchoqlarni o’ziga yoqqan bolalar shkafchasiga solib qo’yish tavsiya etiladi. Olingan natijalar sotsiogramma jadvalida aks ettiriladi. Jadvalda aks etgan natijalar yordamida guruh «yulduzlari», lider bolalar guruhi aniqlanadi. Shuningdek, bu metod yordamida bolalarning kimlar bilan do’stligi yoki do’stlashishga intilishlari haqida ma’lumot olinadi. Faoliyat orqali yondashuv tamoyili. Tekshiruv bolaning



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

yetakchi faoliyati hisobga olingan holda amalgalashni lozim. Agar bu maktabgacha yoshdagi bola bo'lsa, o'yin faoliyati kontekstida, mifik tab bolasi bo'lsa, o'quv faoliyatida. Ayrim hollarda, agar rivojlanishda, shu jumladan nutq rivojlanishida orqada qolish kuzatilsa, o'yin metodikalari maktab yoshida ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Bundan tashqari bola va o'smir uchun shaxsan tanish bo'lgan faoliyat turlarini tanlash tavsiya etiladi. Bolani dinamikada o'rganish tamoyililarini U bolalarining mavjud imkoniyatlarinigina emas, balki ularning kelgusida bilimlari va ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan. L.S. Vigotskiyning ta'lim va rivojlanish nisbatlari haqidagi konsepsiysi shu tamoyilga asoslanadi. Unga ko'ra bola o'zi mustaqil hal qiladigan masalalar bilan belgilanadigan aktual rivojlanish zonasi va bola kattalar yordamida hal qiladigan masalalar belgilab beradigan eng yaqin rivojlanish zonasi farqlanadi. Rivojlanish tamoyili. Ushbu tamoyilga ko'ra, nuqsonning yuzaga kelish jarayonini(sababini) tahlil qilish bilan birga, aynan shu nuqsonni bolaning rivojlanishiga qanday ta'sir etishini o'rganish nazarda tutiladi. Ruhiy holatlarning to'g'ri tavsifnomasi nuqsonning kelib chiqish sabablari, aynan hozirgi vaqtidagi holati va kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni inobatga olgan holdatuziladi. Masalan, noaniq artikulatsiya so'zni, tovushni tahlil —sintez qilish malakasini egallashda qiyinchiliklar, yozma nutqda agramatizmlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, noaniq talaffuz nutqiy faollikning susayishiga, muloqotga kirishishda ehtiyojning kamayishiga olib keladi. Bola atrofdagilarning masxaralashlaridan uyalib muloqotga kirishmaydi, natijada esa, bolaning faol va passiv lug'ati kamayadi. Rivojlanish tamoyiliga ko'ra, nuqsonni statistik jihatdan ta'riflashga emas, balki uning rivojlanish dinamikasini aniqlashga alohida urg'u beriladi.

## **Xulosa:**

Logopediya - bu nafaqat nutq nuqsonlarini bartaraf etishga, balki insonlarning ijtimoiy hayotdagi imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan muhim fan sohasi. Ushbu fan nutq muammolariga ega shaxslarning o'zlarini erkin ifoda etishiga yordam berish, ularning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatda o'z o'rmini topishiga xizmat qiladi. To'g'ri metod va tamoyillardan foydalanish esa logopediyaning



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

samaradorligini oshiradi. Logopediya zamonaviy jamiyatda katta ahamiyatga ega bo'lib, insonlarning to'laqonli muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'yaydi. Mazkur fan sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar ta'lif tizimi va jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyatga ega.

## **Foydalangan adabiyotlar**

1. Pedagogika va defektologiya sohasida mashhur bo'lgan adabiyotlar, masalan, L.S. Vygotskiy, A.I. Mesheryakov kabi olimlarning ishlari.
2. R. Mo'minova, Sh.M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U. Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova. T.: O'zbekistonfaylasuflar milliy jamiyati, 2022
3. Elektron resu